

SAYLOV TO‘G‘RISIDAGI MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO ANDOZALAR

Norpo‘latova Shahzoda Alisher qizi

Umarova Rohatoy Xurshid qizi

Esonova Sitora Berdiboy qizi

Raxmatova Nasiba Ixtiyorjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11246255>

Annotation. Ushbu maqolada saylov to‘g‘risidagi milliy qonunchilik va xalqaro andozalar o‘rganilgan. Saylov huquqi sohasiga taalluqli asosiy xalqaro prinsiplar va andozalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksiga implementatsiya qilinganligi atroflicha tahlil qilingan. Bu tahlillar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksining ayrim tegishli moddalari misolida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, saylov huquqiga doir xalqaro universal hujjatlar va xalqaro saylov huquqi prinsiplari haqida ma’lumot berilgan. Hamda Saylov kodeksining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Saylov kodeksi, milliy saylov qonunchiligi, saylov huquqi, xalqaro huquqiy hujjatlar, implementatsiya, xalqaro prinsiplar va andozalar, yangi O‘zbekiston, siyosiy huquqlar, fuqarolik pozitsiyasi, demokratiya, xalq, fuqaro, davlat hokimiyati, saylash va saylanish huquqi, saylov prinsiplari, ochiqlik va oshkoraliq, huquqiy va siyosiy madaniyat, siyosiy tizim, taraqqiyot.

NATIONAL ELECTION LEGISLATION AND INTERNATIONAL STANDARDS

Abstract. This article examines national election legislation and international standards. The implementation of the main international principles and models related to the field of electoral rights into the Constitution and the Election Code of the Republic of Uzbekistan has been thoroughly analyzed. These analyzes were considered on the example of some relevant articles of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Election Code. Also, information is given about the international universal documents on the right to vote and the principles of the international right to vote. The importance of the Electoral Code is also highlighted.

Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan, Election Code, national election legislation, right to vote, international legal documents, implementation, international principles and models, new Uzbekistan, political rights, civil position, democracy, people, citizen, state power, the right to vote and be elected, election principles, openness and transparency, legal and political culture, political system, development.

**НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО О ВЫБОРАХ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ
СТАНДАРТЫ**

Аннотация. В статье изучается национальное избирательное законодательство и международные стандарты. Подробно проанализирована имплементация основных международных принципов и моделей, связанных с областью избирательных прав, в Конституцию и Избирательный кодекс Республики Узбекистан. Данные анализы были рассмотрены на примере некоторых соответствующих статей Конституции Республики Узбекистан и Избирательного кодекса. Также дается информация о международных универсальных документах об избирательном праве и принципах международного избирательного права. Также подчеркивается важность Избирательного кодекса.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, Избирательный кодекс, национальное избирательное законодательство, избирательное право, международно-правовые документы, реализация, международные принципы и модели, новый Узбекистан, политические права, гражданская позиция, демократия, народ, гражданин, государственная власть, право избирать и быть избранным, избирательные принципы, открытость и прозрачность, правовая и политическая культура, политическая система, развитие.

KIRISH

Davlatning demokratiyalashuvini o‘rganish va tahlil qilishda saylov jarayonlari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki, “saylov huquqi” fuqarolarning siyosiy huquqlaridan biri hisoblanib, davlat hokimiyatini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar”[1]-deb, yozilgan. Ushbu norma Saylov kodeksining 6-moddasida ham keltirilgan bo‘lib, jumladan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palasasi deputatlari, mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadi”[2]-deb, mustahkamlangan. Shu nuqtai-nazardan mamlakatimizdagi hozirgi zamon saylov huquqi xalq hokimiyatini yaqqol namoyon qiladigan muhim konstitutsiyaviy institutdir. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida ham bayon qilingan bo‘lib, unda “Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir”[1]-deyilgan. Shuningdek bugungi kunga kelib, jahondagi mutloq monarxiya boshqaruviga ega bo‘lgan mamlakatlardan tashqari deyarli barcha

mamlakatlarda davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish organlarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan demokratik saylovlardan siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bo‘ldi.

Davlatimiz saylov qonunchiligining asosi erkin demokratik saylovlardan o‘tkazish bo‘yicha xalqaro saylov andozalari majmuini tashkil etuvchi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga to‘la mos keladi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida muqaddimasida ta’kidlanganidek, yurtimizda “xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustunligi”[1] tan olinadi.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab fuqaroning saylov huquqlari va erkinliklari mavzusi nufuzli xalqaro tashkilotlar jiddiy shug‘ullanadigan masalaga aylandi.

Hozirgi paytda dunyoda insonning saylov huquqlari va erkinliklarini o‘tkazish sohasiga doir 20 dan ziyod xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. [3, C.19-33.]

Saylov huquqi sohasiga taalluqli prinsiplar va andozalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qancha xalqaro universal hujjatlarida, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasining (1948 yil 10 dekabr) 21-moddasida[4], Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning (1966 yil 16 dekabr) 25-moddasida[5], Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida xalqaro konvensiyaning (1965 yil 21 dekabr) 5-moddasida[6], Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida BMT deklaratasiyasining (1963 yil 20 noyabr) 6-moddasida[7] mustahkamlab qo‘yilgan.

Shuningdek mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham o‘zlarining Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoyalash to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi(1950 yil)[8], Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasi (1969 yil)[9, 58-bet.], Inson va xalqlar huquqlarining Afrika xartiya (1986 yil)[9, 94-bet.] kabi xalqaro-huquqiy hujjatlari timsolida ham xalqaro saylov andozalariga jiddiy ahamiyat qaratadi. Xususan, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) demokartik saylovlardan sohasidagi asosiy andozalari Insoniy mezonlari bo‘yicha Kopengagen hujjatida (1990)[10, 8-bet.] o‘z aksini topgan.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida saylov huquqi sohasiga taalluqli quyidagi prinsiplar e’tirof etiladi:

- umumiyligi saylov huquqi;
- teng saylov huquqi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi;
- yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylash;
- muntazam va majburiy saylovlardan;

- ochiq va oshkora saylovlari;
- erkin saylovlari;
- haqiqiy saylovlari;
- adolatli saylovlari;
- saylovlarning mustaqil saylov komissiyalari tomonidan o'tkazilishi;
- saylovlarning va nomzodlar, siyosiy partiyalar saylov kampaniyasining davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanishi;
- saylovlari va tashviqot faoliyatining davlat tomonidan axborot jihatdan qo'llab-quvvatlanishi;
- saylovlarda milliy va xalqaro kuzatuvchilarning ishtiroki;
- fuqarolarning o'z saylov huquqlari va erkinliklari buzilganligi ustidan shikoyat qilinishi va buning uchun tegishli javobgarlik ko'zda tutilganligi;
- kamsitish deb hisoblanmaydigan chora-tadbirlar.

Ana shunday prinsip va huquqlarning barchasi jamlangan holda xalqaro saylov andozalarini tashkil etadi.

Ma'lumot sifatida shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, Saylov kodeksini loyihasini tayyorlash jarayonida Fransiya, Gollandiya, Kanada, Italiya, Shvetsiya, Belgiya, Polsha, Albaniya, Belarus, Ozarbayjon kabi mamlakatlarning Saylov kodekslari va qonunlari o'rGANildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtida 40 dan ortiq davlatda Saylov kodeksi qabul qilingan.

2019-yil 25-iyunda O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksini qabul qilindi. Bundan tashqari, saylovlarga doir o'ndan ortiq xalqaro hujjatlar atroflicha tahlil qilinib, ularning asosiy g'oya va standartlari Saylov kodeksida o'z aksini topdi. Umuman olganda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksiga asosiy xalqaro saylov andozalarining barchasi implementatsiya qilindi.

Birinchidan, Saylov kodeksida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xohish-irodasini erkin bildirilishini ta'minlovchi kafolatlarni belgilanishi[2,1-modda.]mustahkamlandi. Bu huquq va erkinliklar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham kafolatlangan edi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasida "...Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi"[1]-deb, bayon qilingan. Demak, O'zbekistonda saylov xalq o'z hokimiyati va hohish-irodasini to'g'ridan-to'g'ri ro'yobga chiqarishining oliy ifodasidir. Bu oliy ifoda davlat hokimiyati organlarini demokratik tarzda tashkil etilishining negizi ekanini qayd etadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar.[1,128-modda.] Bu huquqlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqlarini amalga oshirish tartib-qoidalari avval alohida-alohida qonunlarda ko‘rsatilgan edi. Yangi saylov kodeksida esa bu huquqlarni amalga oshirish tartib-qoidalaringin barchasi tizimlashtirilgan holda bayon qilindi.

Ya’ni ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.[2, 1-modda.]

Uchinchidan, O‘zbekiston saylov qonunchiligidagi xalqaro saylov huquqlari prinsiplari umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqlari asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilishi mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar. [1,128-modda.]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlari umumiyyidir.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmaydi. [2, 5-modda.]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadi. [2, 6-modda.]

Saylovda erkin va yashirin ovoz beriladi. Saylovchilarining xohish-irodasini nazorat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta’milnadi. [2, 7-modda.]

To‘rtinchidan, Saylov kodeksidagi saylovga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishdagi ochiqlik va oshkorlik prinsipi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra saylovga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan.

Saylov komissiyalari fuqarolarni o‘z ishi to‘g‘risida, saylov okruglari, uchastkalari tuzilganligi haqida, saylov komissiyalarining tarkibi, ularning joylashgan eri va ish vaqtini to‘g‘risida xabardor etadi, saylovchilarining ro‘yxatlari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro‘yxati bilan tanishtiradi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar to‘g‘risidagi, shuningdek ovoz berish va saylov yakunlari haqidagi ma’lumotlarni ma’lum qiladi.

Ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishini va saylov qanday o‘tayotganligini yoritib boradi.

Saylov komissiyalarining majlislari ochiq o‘tkaziladi. Saylov komissiyalarining qarorlari ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi yoki ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hammaga ma’lum qilinadi.

Saylovga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishga doir barcha tadbirdarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar ishtirok etish huquqiga egadirlar. [2, 8-modda.]

Beshinchidan, mamlakatimizda saylovlarni demokratik tamoyillar asosida o‘tkazish maqsadida huquqiy asoslar yaratildi va takomillashtirildi. Saylov qonunchiligining asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi. Shuningdek 18 bob va 103 moddadan iborat Saylov kodeksi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xohish-irodasi erkin bildirilishini ta’minlovchi kafolatlarni belgilaydi.

XULOSA

Saylovlar xalqning erkin tarzda ifoda etiladigan xohish-irodasini aniqlaydi va uning bevosita ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi. O‘zbekiston saylov qonunchiligi saylovchilarga nomzodlarni erkin tanlash va saylash imkonini beradi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan saylovlar siyosiy plyuralizm, g‘oyalar xilma-xilligi va ko‘ppartiyaviylikka asoslanadi. Davlatimiz xalqaro hamjamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida yuqorida sanab o‘tilgan saylov to‘g‘risidagi xalqaro andozalarni, fuqarolarning saylovga doir huquq va erkinliklarini

e'tirof etadi va mamlakatda demokratik saylovlar o'tkazish borasida saylovga doir huquq va erkinliklarni yanada kuchaytirish uchun izchillik bilan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Eng muhimi, Saylov kodeksining hayotga tatbiq etilishi mamlakatimizda saylov jarayonlari yanada demokratik tarzda va oshkoraliq ruhida o'tishini ta'minlaydigan yangi, ilg'or amaliyotni joriy etishni huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimiz siyosiy tizimini yanada demokratlashtirish va siyosiy modernizatsiya jarayonini chuqurlashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Shunday ekan, bugungi O'zbekistonda saylovlarda fuqarolarning faol ishtirok etishi orqali o'z kelajagini o'zi tanlashi imkoniyati berilayotganligi anglash davri keldi. Bu prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Saylov jarayonlarida barchamizning, avvalo, dunyoqarashimiz, siyosiy va huquqiy madaniyatimiz, grajdaniqlik pozitsiyamiz yana bir bor namoyon bo'ladi".[11] Fuqarolarning bu huquqiy va siyosiy madaniyati, hayotidagi pozitsiyasi davlat va jamiyatni demokratiyalashuvini ta'minlaydi. Zero, yangi O'zbekiston davlatining ham asosiy g'oyasi davlat idoralari xalq manfaatlariga xizmat qilishidir.

Xalqimizning siyosiy manfaatlari milliy qonunchiligidan halqaro andozalarga mos ravishda kafolatlangan. Faqatgina fuqarolarimiz davlatimiz tomonidan kafolatlangan huquq va erkinliklardan, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, mamlakatimizni taraqqiyotini yanada yuksaltirishga o'z hissalarini qo'shishlari kerak bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "Yuridik adabiyotlar pulish" 2023. <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. 2019-yil 25-iyun. <https://lex.uz>.
3. Saidov A.X. Международное право и избирательное законодательство/-Т.: ТГЮИ, 2004.-С.19-33.
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr. uz.wikipedia.org/wiki/
5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. Nyu-York. 1966-yil 16-dekabr/ <https://lex.uz>.
6. Iriqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida xalqaro konvensiya. Nyu-York 1965-yil 21-dekabr/ <https://lex.uz>.
7. Iriqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida BMT deklaratsiyasi. Nyu-York. 1963-yil 20-noyabr/ uz.wikiqube.net.

8. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoyalash to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi.
<https://ru.wikipedia.org/wiki//>
9. Inson huquqlari: Parlament a’zolari uchun qo‘llanma/Mas’ul muharrir akademik Saidov A.X. T.: “Baktria press” nashriyoti, 2019, 58-bet.
10. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar/Mas’ul muharrir Saidov A.X. T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012, 8-bet.
11. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr. <https://president.uz>